"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BOSHQARUV QARORI

Toshkent sh. **№ 261** **16.10.2023**

Bankning ichki me'yoriy hujjatini yangi tahrirda qabul qilish to'g'risida

Bank boshqaruvining 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurash boshqaruv tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom" tasdiqlangan.

Mazkur Nizom talablariga ko'ra bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobotlar har chorakda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga, Bank boshqaruvi hamda Kuzatuv kengashi muhokamasiga belgilangan tartibda taqdim etilib borilishi belgilangan.

Bank Kuzatuv kengashining 2023-yil 27-iyuldagi 2023/19-sonli qaroriga muvofiq Kuzatuv kengash va uning qoshidagi qo'mitalar ish rejasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobotlar Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga yil yakuni bo'yicha keyingi yilning fevral oyida taqdim etilishi belgilandi.

Bankning ichki me'yoriy hujjatini Kuzatuv kengash qaroriga muvofiqlashtirish maqsadida Komplayens-nazorat departamenti tomonidan tegishli tarkibiy bo'linmalar bilan kelishilgan xolda "O'zsanoatqurilishbank" ATB da korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi" yangi tahrirda ishlab chiqilib, o'rnatilgan tartibda Boshqaruv muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to'g'risidagi Nizomning 22-bandiga asosan Bankning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish Bank boshqaruvi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. "O'zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi" (yangi tahriri) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu munosabat bilan, Bank boshqaruvning 2022-yil 10-maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurash boshqaruv tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom" o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. Marketing departamenti direktori (S.Niyazov) mazkur Tartibni ishda foydalanish uchun Bankning barcha tarkibiy bo'linmalariga yetkazilishi hamda ular bo'yicha texnik o'quv o'tkazilishini ta'minlasin.

3. Barcha tarkibiy bo'linma rahbarlari mazkur Tartibning mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazsin va uning talablari xodimlar tomonidan to'liq bajarilishini ta'minlasin.

4. Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi (S.Raxmatullayev) mazkur qaror bilan tasdiqlanayotgan ichki me'yoriy hujjatni qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka yetkazsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Risk bosh direktori X.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi
Akbarjonov Aziz Akbarjono'g'li

A.A.Ergashev S.N.Gulturayev X.G.Akbarov Yakubov
Sh.I. B.N.Norxujayev A.o.Yoqubjonov

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida
2023-yil "17" oktabrda
571-son bilan
"RO'YXATGA OLINGAN

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Boshqaruvining
2023-yil "16" oktabr dagi
10/21-sonli qaroriga
ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank"ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi
(yangi tahrirda)

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, Qonun, "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me'yoriy hujjatlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (AV ro'yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel), Xalqaro ISO 37001:2016 standart talablari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan.

Ushbu Tartib "O'zsanoatqurilishbank" ATB (keyingi o'rinlarda – Bank)ning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobotini shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish uchun mas'uliyat Komplayens-nazorat departamentiga yuklatiladi.

Bankning hududiy tarkibiy bo'linmalari tomonidan hisobotni taqdim qilish uchun mas'uliyat hududiy tarkibiy bo'linmalari rahbarlari zimmasida bo'ladi.

II. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish

3. Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobot (keyingi o'rinlarda – hisobot) ushbu tizim faoliyatini monitoring va nazorat qilish, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bankda qabul qilingan tadbirlar ijrosini nazorat qilish maqsadida tuziladi.

4. Bankda quyidagi muddatlarda hisobot taqdim etiladi:

a) Bank boshqaruvi Raisi va Kuzatuv kengashiga yil yakuni bo‘yicha keyingi yilning mart oyiga qadar umumiy yillik hisobot taqdim etiladi;

b) Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashning “Tavakkalchiliklar va komplayens-nazorat qo‘mitasi”ga har 6 oyda bir marotaba oraliq hisobot taqdim etiladi.

Yillik hisobot Kuzatuv kengash qarori bilan tasdiqlangandan so‘ng, ushbu hisobotdagi umumiy ma’lumot bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

Umumiy yillik hamda oraliq hisobotlar tuzilgandan so‘ng EHA dasturi orqali yoki qog‘oz shaklda yuborilishi mumkin.

5. Hisobotni shakllantirish tartibi. Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritiladigan umumiy yillik hisobot mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq, Bank boshqaruvi va Kuzatuv kengashning Tavakkalchiliklar va komplayens-nazorat qo‘mitasi muhokamasiga kiritiladigan oraliq hisobot mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq tuziladi va taqdim etiladi.

Umumiy yillik hisobotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlari, vakolatli organlarning chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha ham ma’lumot kiritilishi mumkin.

6. Umumiy yillik hisobot quyidagilarni qamrab olishi lozim:

a) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishi holati;

b) korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankda qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar;

c) xavf-xatarlarni baholash ishlari;

d) manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar;

e) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati;

f) kontragent va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish natijalari yuzasidan ma’lumot;

g) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quv-treninglar holati;

h) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi samaradorligi monitoringi va ichki auditi (nazorati)

i) korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi xabarlar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumot;

j) aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari;

k) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar (mavjud bo‘lsa).

l) yillik hisobotda o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ko‘rsatkichlarning qiyosiy tahlili ko‘rsatilishi mumkin.

7. Oraliq hisobot quyidagilarni qamrab olishi lozim:

a) tashqi va ichki omillar (qonunchilik va hujjatlar talablari, ularning bajarilish muddatlari va natija);

b) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining monitoringi va ichki auditi natijalari;

c) korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha o'tkazilgan o'quv-treninglar (seminarlar, davra suhbatlari);

d) Bankning aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar o'rganilishi - o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari holati;

e) OAV va aloqa kanallarining monitoringi.

III. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risidagi hisobotni shakllantirishda tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo'linmalarning majburiyatlari

8. Umumiy yillik hisobotni shakllantirish uchun yo'nalishiga qarab quyidagi bo'linmalar ma'lumotni Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasiga har yili dekabr oyining 30-sanasiga qadar taqdim etishi uchun mas'uldirlar:

a) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (maqsadlari)ning bajarilishi bo'yicha ma'lumotlarni - ushbu dasturda belgilangan tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo'linmalar rahbarlari;

b) Xavf-xatarlarni baholash ishlari bo'yicha ma'lumotlarni – barcha tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo'linmalar rahbarlari;

c) manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni – Xodimlarni boshqarish departamenti va hududiy kadrlar xizmati rahbarlari;

d) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati bo'yicha ma'lumotlarni – Bankning barcha biznes yo'nalishidagi bo'linmalari (chakana, kichik va o'rta biznes, korporativ biznes, moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti) rahbarlari, shuningdek Xodimlarni boshqarish departamenti va hududiy tarkibiy bo'linmalardagi kadrlar bilan ishlash bo'linmalari rahbarlari.

Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasining so'rovnomasiga asosan barcha tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo'linmalar boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

9. Oraliq hisobotni shakllantirish uchun yo'nalishiga qarab quyidagi bo'linmalar ma'lumotni Komplayens-nazorat departamenti Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasiga har yili iyun va keyingi yilning fevral oyi yakuniga qadar taqdim etishi uchun mas'uldirlar:

a) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishi bo‘yicha ma’lumotlarni - ushbu dasturda belgilangan tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo‘linmalar rahbarlari;

b) xavf-xatarlarni baholash ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni – barcha tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari;

c) Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritish holati bo‘yicha ma’lumotlarni – Bankning barcha biznes yo‘nalishidagi bo‘linmalari (chakana, kichik va o‘rta biznes, korporativ biznes, moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti) rahbarlari, shuningdek Xodimlarni boshqarish departamenti va hududiy tarkibiy bo‘linmalardagi kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari rahbarlari;

d) moliyaviy nazorat bo‘yicha aniqlangan nomuvofiqliklar va yopilgan nomuvofiqliklar soni bo‘yicha ma’lumotlarni - Ichki audit departamenti, Komplayens - nazorat departamenti, Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment, Operatsion departamentlari;

e) moliyaviy bo‘lmagan nazorat orqali aniqlangan nomuvofiqliklar va yopilgan nomuvofiqliklar soni bo‘yicha ma’lumotlarni - Ichki Audit departamenti va Komplayens-nazorat departamenti rahbarlari;

Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasining so‘rovnomasiga asosan barcha tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo‘linmalar boshqa hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

10. Hisobot turiga qarab Korrupsiyaga qarshi kurashish maxsus boshqarmasi tomonidan mazkur Tartibning 3-ilovasiga muvofiq hisobotni shakllantirish uchun ma’lumotlarni taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi.

Tarkibiy (hududiy tarkibiy) bo‘linmalar rahbarlari so‘ralgan hujjatlar (ma’lumotlar)ni xabarnomada belgilangan muddatda to‘liq va sifatli taqdim etish bo‘yicha mas’ul bo‘lib hisoblanadi.

Tarkibiy bo‘linmalar tomonidan hisobotni shakllantirish uchun yuborilgan hujjatlari (ma’lumotlari) ushbu tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatiladi.

Tarkibiy bo‘linmalardan olingan ma’lumotlarga asosan hisobot Komplayens-nazorat departamenti tomonidan tuziladi va Bank boshqaruvi, Kuzatuv kengashi, Kuzatuv kengashning Tavakkalchiliklar va komplayens-nazorat qo‘mitasi muhokamasiga kiritadi.

IV. Yakuniy qoidalar

11. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Tartib qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

12. Ushbu tartib tasdiqlanishi munosabati bilan Bank boshqaruvining 2022 yil 10 maydagi 56/7-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O‘zsanoatqurilishbank" ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizomi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanadi.

Kiritildi:

Komplayens-nazorat
departamenti direktori J.Yusupov

Kelishildi:

Risk menejment departamenti direktori K.Karimov

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasi boshlig‘i S.Raxmatullayev

"O'zsanoatqurilishbank"ATB da korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi"ga 1-Ilova

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risida umumiy yillik hisobot

I. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi, amalga oshirish uchun mas'ul bo'linmalar to'g'risidagi ma'lumot ko'rsatiladi.

Mas'ul bo'linmalar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirilmaganligi sabablari asoslantirilgan holda ko'rsatilishi mumkin.

II. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bankda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini tartibga soluvchi ichki me'yoriy va boshqa hujjatlar (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va shu kabilar)ni ko'rsatish lozim.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Xavf-xatarlarni baholash amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumot shu jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirgan va o'zlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini yangilagan tarkibiy bo'linmalar kesimida ko'rsatish kerak;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirmagan tarkibiy bo'linmalar soni, shuningdek ularning bajarilmaganligi sabablari ko'rsatiladi.

IV. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalangan va tartibga solingan holatlar soni, shu jumladan, ishga qabul qilish, har yillik deklaratsiyalash jarayonida (mavjud bo'lgan taqdirda), Bosh bank va uning hududiy tarkibiy bo'linmalari kesimida ko'rsatiladi;

Manfaatlar to'qnashuvi mavjud (mavjud emasligi) to'g'risida deklaratsiyalarni taqdim etgan xodimlar soni foizdagi nisbati.

V. Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini sharnomalariga kiritish holati

Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini shartnomalarga kiritilganligi bo'yicha umumiy ma'lumot ko'rsatilishi lozim.

VI. Kontragentlar va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish holati

Hisobot davrida kontragentlar va nomzodlarni ishga qabul qilishda o‘tkazilgan o‘rganishlar bo‘yicha ma’lumot kiritiladi.

VII. Ta’lim va kommunikatsiya

Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quv-treninglar, o‘qitilgan xodimlarning foizdagi nisbati ko‘rsatiladi;

Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha kommunikatsiya turlari va sonini (masalan, tarqatmalar, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazish) ko‘rsatiladi.

VIII. Monitoring va nazorat

Bank va uning hududiy tarkibiy bo‘linmalari kesimida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablariga asosan o‘tkazilgan monitoring natijalari to‘g‘risida umumiy ma’lumot ko‘rsatiladi.

IX. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risidagi habarlar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumot

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni o‘rganish uchun o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlar bo‘yicha umumiy ma’lumot ko‘rsatiladi;

Xabarlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar aloqa kanallari kesimida keltiriladi (masalan, ishonch telefoni, bevosita xabar berish va boshqalar).

X. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari

O‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijasida aniqlangan qoidabuzarliklar holatlari va qabul qilingan qaror (ta’sir chora)lar to‘g‘risida umumiy ma’lumot ko‘rsatiladi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini rivojlantirish bo‘yicha takliflar (mavjud bo‘lsa)

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ko‘rsatilishi mumkin.

"O'zsanoatqurilishbank"ATB da korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi"ga 2-Ilova

"O'zsanoatqurilishbank" ATB
Kuzatuv kengashiga / Boshqaruvi Raisiga

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining faoliyati to'g'risida hisobot

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bilan bog'liq tashqi va ichki talablar.

Talablar	Choralar	Amalga oshirish vaqti/muddati	Samaradorlik
Tashqi talablar (qonunchilik/normativ hujjatlar bilan yuklangan vazifalar)			
Ichki talablar (ichki hujjatlar bilan yuklangan vazifalar)			

2. Ichki audit va monitoring.

---

3. O'quv-trening va test sinovlar jarayonlari.

---

4. Ichki monitoring natijalari.

	Samaradorlik indeksi va hisoblash metodikasi	Jarayon samaradorligi mezonlari		Natija
		maqsad	chegara	Hisobot davri
1. Rejalashtirish				
1.1.	Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadlariga	100%	90%	

	erishish / (erishilgan maqsadlar soni/ umumiy maqsadlar soni) *100%			
1.2.	Korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadlarini qayta ko‘rib chiqish	1 martadan kam bo‘lmagan holda	o‘tkazilmagan	
2. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi dolzarbligini ta’minlash				
2.1.	Rejalashtirilgan o‘quv-treninglarni o‘tkazish / (o‘qitilgan xodimlar soni /o‘qitilgan xodimlarning umumiy soni) *100%	100%	80%dan kam bo‘lmagan holda	
2.2.	Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini biznes sheriklarga yetkazilishini ta’minlash	1 yilda 1 marta	1 yil mobaynida o‘tkazilmagan	
2.3.	Moliyaviy nazorat orqali quyi tashkilotlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish talablariga rioya etilishini nazorat qilish	0	1 marta	
2.4.	Xodimlarga berilgan pul to‘lovlarni taxlil qilish (asossiz pul to‘lovlar soni)	0	0	
2.5.	Moliyaviy nazorat bo‘yicha yopilgan tafovutlar (yopilgan tafovutlar soni /moliyaviy nazorat bo‘yicha tafovutlar umumiy soni)*100%	100%	90%	
2.6.	Nomoliyaviy nazorat bo‘yicha yopilgan tafovutlar soni (yopilgan tafovutlar soni /	100%	85%	

	nomoliyaviy nazorat bo‘yicha tafovutlar umumiy soni)*100%			
2.7.	Xuddi shu audit obyektiga ichki auditorni takroran tayinlash	ruxsat berilmaydi	2 yildan so‘ng ichki auditorni tayinlash	
2.8.	O‘z vaqtida o‘tkazilgan o‘rganishlar (ichki tekshiruvlar foizi / (o‘z vaqtida o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari / o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari umumiy soni) *100%	100%	100%	
3. Monitoring va KQKMT baholanishi				
3.1.	O‘tkazilgan ichki monitoring (audit)lar soni (ichki audit o‘tkazilgan bo‘linmalarning soni vnutrenniy audit / reja bo‘yicha bo‘linmalarning umumiy soni) *100%	100%	100%	
3.2.	O‘z vaqtida taqdim etilgan ma’lumotlar foizi (o‘z vaqtida taqdim etilgan ma’lumotlarning umumiy soni / barcha ma’lumotlar soni) *100%	100%	90%	
4. KQKMT faoliyati bo‘yicha hisobotlarni ko‘rib chiqish				
4.1.	Bank boshqaruvi tomonidan hisobotlarni ko‘rib chiqish / tahlilni kechiktirish	10 kalendar kungacha	30 kalendar kungacha	
4.2.	Kuzatuv kengash tomonidan hisobotlarni ko‘rib chiqish / tahlilni kechiktirish	10 kalendar kungacha	30 kalendar kungacha	

5. Aloqa kanallari va xizmat tekshiruvlar (o‘rganishlar).

---

6. Aloqa kanallari va OAV monitoringi.

KQKMT bo‘yicha Boshqaruv vakili
Komplayens-nazorat departamenti direktori _____

Komplayens-nazorat departamenti
Korrupsiyaga qarshi kurashish
maxsus boshqarmasi boshlig‘i/o‘rinbosari _____

202_ yil “___”_____.

"O'zsanoatqurilishbank"ATB da korrupsiyaga
qarshi kurashish menejment tizimining holati
to'g'risidagi hisobotni shakllantirish Tartibi"ga
3-Ilova

Bankning _____ departamentiga
/hududiy tarkibiy bo'linmasiga

XABARNOMA

Sizdan_____uchun bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi faoliyati bo'yicha hisobotni shakllantirish maqsadida quyidagi ma'lumotlar (hujjatlar)ni tasdiqlangan holda taqdim etishingiz so'raladi:

_____;
_____;
_____;
_____;
_____;
_____.

Mazkur hujjatlar (ma'lumotlar)ni joriy yilning "___" _____ kuniga qadar taqdim etishingiz lozimligi bildiriladi.

202_ yil "___"_____.

Korrupsiyaga qarshi kurashish
maxsus boshqarmasi boshlig'i /o'rinbosari _____